Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

MILLIY IQTISODIYOTDA YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI BAHOLASHNING STATISTIK METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

RUSTAMOV RAVSHANBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI
Millat Umidi universitetining 2-kurs talabasi, fanrvw@gmail.com
+998 (50) 017-77-57
Ilmiy rahbar: Millat umidi universiteti Xalqaro biznes va moliya kafedrasi professori i.f.d. **Umarova Mukaddas Abbasovna.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning statistik metodologiyasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning aniqligiga, soliq siyosatining samaradorligiga hamda davlat byudjeti daromadlarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi asoslab beriladi. Tadqiqot davomida yashirin iqtisodiyotni baholashda qo‘llaniladigan an’anaviy usullar, jumladan, monetar yondashuv, mehnat bozori indikatorlari asosidagi usullar hamda ko‘p omilli statistik modellar o‘rganildi va ularning afzallik hamda kamchiliklari aniqlashtirildi. Maqolada zamonaviy statistik yondashuvlarni, xususan, ekonometrik modellar, katta ma’lumotlar tahlili hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan yangi indikatorlardan foydalanish imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, milliy hisoblar tizimi doirasida yashirin iqtisodiyotni aniqlash va baholash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari yashirin iqtisodiyot ulushini aniqroq baholash orqali makroiqtisodiy tahlil sifatini oshirish, samarali iqtisodiy siyosat yuritish hamda davlat boshqaruvi qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Yashirin iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, statistik metodologiya, baholash usullari, ekonometrik modellar, monetar yondashuv, mehnat bozori indikatorlari, norasmiy sektor, soliq tushumlari, milliy hisoblar tizimi, big data, raqamli iqtisodiyot, statistik tahlil, iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy siyosat, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы совершенствования статистической методологии оценки доли теневой экономики в национальной экономике. Утверждается, что существование теневой экономики оказывает существенное влияние на точность экономических показателей, эффективность налоговой политики и формирование доходов государственного бюджета. В ходе исследования были изучены традиционные методы оценки теневой экономики, включая монетарный подход, методы, основанные на показателях рынка труда, и многофакторные

Published: 05.06.2026

Cite this article: Rustamov Ravshanbek Ulug‘bek o‘g‘li, Umarova Mukaddas Abbasovna (2026). Milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning statistik metodologiyasini takomillashtirish. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/774

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

статистические модели, а также выявлены их преимущества и недостатки. В статье обосновываются возможности использования современных статистических подходов, в частности, эконометрических моделей, анализа больших данных и новых показателей, появляющихся в цифровой экономике. Также разработаны научно-практические предложения по совершенствованию механизмов выявления и оценки теневой экономики в системе национальных счетов. Результаты исследования будут способствовать повышению качества макроэкономического анализа, проведению эффективной экономической политики и процессу принятия решений в сфере государственного управления за счет более точной оценки доли теневой экономики.

Ключевые слова: скрытая экономика, национальная экономика, статистическая методология, методы оценки, эконометрические модели, монетарный подход, показатели рынка труда, неформальный сектор, налоговые поступления, система национальных счетов, большие данные, цифровая экономика, статистический анализ, экономическая безопасность, экономическая политика, макроэкономические показатели.

Annotatsion: This article analyzes the issues of improving the statistical methodology for assessing the share of the hidden economy in the national economy. It is argued that the existence of the hidden economy has a significant impact on the accuracy of economic indicators, the effectiveness of tax policy, and the formation of state budget revenues. During the study, traditional methods used to assess the hidden economy, including the monetary approach, methods based on labor market indicators, and multifactor statistical models, were studied and their advantages and disadvantages were identified. The article substantiates the possibilities of using modern statistical approaches, in particular, econometric models, big data analysis, and new indicators emerging in the digital economy. Also, scientific and practical proposals are developed to improve the mechanisms for identifying and assessing the hidden economy within the system of national accounts. The results of the study will serve to improve the quality of macroeconomic analysis, conduct effective economic policy, and the process of making public administration decisions by more accurately assessing the share of the hidden economy.

Keywords: Hidden economy, national economy, statistical methodology, estimation methods, econometric models, monetary approach, labor market indicators, informal sector, tax revenues, system of national accounts, big data, digital economy, statistical analysis, economic security, economic policy, macroeconomic indicators.


Kirish. Zamonaviy sharoitda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning aniqligini oshirish va samarali

iqtisodiy siyosat yuritish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda yashirin iqtisodiyotning mavjudligi va uning ulushi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Yashirin iqtisodiyot rasmiy statistik hisobdan tashqarida qoladigan xo‘jalik faoliyatini ifodalab, davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga, soliq bazasining qisqarishiga hamda iqtisodiy tahlil natijalarining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushini aniqlash va baholash masalasi murakkab ilmiy-amaliy muammo sifatida qaralmoqda. Chunki ushbu jarayon bevosita kuzatilmaydigan, yashirin xarakterga ega bo‘lgan faoliyatlarni qamrab oladi. Natijada, uni baholashda an’anaviy statistik usullar yetarli darajada aniqlik bermasligi mumkin. Shu sababli, monetar yondashuv, elektr energiyasi iste’moli asosidagi usullar, mehnat bozori indikatorlari hamda ekonometrik modellar kabi turli metodologiyalar qo‘llanilib kelinmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mavjud metodlar har doim ham iqtisodiyotning real holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, elektron savdo va onlayn xizmatlar hajmining ortib borishi yashirin iqtisodiyot ko‘lamini aniqlashni yanada murakkablashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, statistik metodologiyani takomillashtirish, yangi yondashuv va indikatorlarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning mavjud statistik metodologiyalarini tahlil qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda zamonaviy sharoitlarga mos takomillashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu tadqiqot natijalari yashirin iqtisodiyot ulushini aniqroq baholashga, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ishonchliligini oshirishga hamda samarali iqtisodiy siyosat yuritishga xizmat qiladi.

Adabiyotlarning tahlili: Yashirin iqtisodiyot ulushini baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda ko‘plab taniqli olimlar muhim ilmiy natijalarga erishgan. Xususan, **Friedrich Schneider** yashirin iqtisodiyotni o‘rganish bo‘yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U o‘z ilmiy ishlarida yashirin iqtisodiyot hajmini baholashda **MIMIC (Multiple Indicators Multiple Causes)** modelidan keng foydalangan va turli mamlakatlar kesimida ushbu ko‘rsatkichlarni solishtirma tahlil qilgan. Monetar yondashuvni rivojlantirishda **Vito Tanzi** muhim o‘rin tutadi. U yashirin iqtisodiyot hajmini baholashda naqd pulga bo‘lgan talabni asosiy indikator sifatida qabul qilib, soliq yukining oshishi yashirin iqtisodiyot kengayishiga olib kelishini ilmiy asoslab bergan. Tanzi modeli uzoq vaqt davomida amaliy tadqiqotlarda keng qo‘llanilgan bo‘lsa-da, uning asosiy cheklovi barcha yashirin operatsiyalar naqd pul orqali amalga oshiriladi degan farazga tayanishidadir. Yashirin iqtisodiyotni baholashning fizik indikatorlarga asoslangan usullari **Daniel Kaufmann va Aart Kraay** kabi olimlarning ishlari orqali rivojlantirilgan. Ular iqtisodiy faoliyat va

elektr energiyasi iste’moli o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, rasmiy statistikadan tashqarida qolgan faoliyatni aniqlashga harakat qilganlar. Ekonometrik modellarni rivojlantirishda **Michael Dell'Anno va Enste Dominik** muhim ilmiy hissalar qo‘shgan. Ular MIMIC modelini takomillashtirib, yashirin iqtisodiyotni ko‘p omilli tizim sifatida tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirgan. Shuningdek, **Edgar L. Feige** yashirin iqtisodiyot tushunchasini kengaytirib, uni “norasmiy”, “noqonuniy” va “hisobga olinmagan” iqtisodiy faoliyatlarga ajratgan holda klassifikatsiya qilgan. Bu esa metodologik jihatdan yashirin iqtisodiyotni yanada aniqroq o‘rganish imkonini yaratgan. So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sharoitida yashirin iqtisodiyotni baholash bo‘yicha yangi yondashuvlar ham shakllanmoqda. Bu yo‘nalishda xalqaro tashkilotlar, jumladan, **World Bank va International Monetary Fund** tomonidan ham ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida esa yashirin iqtisodiyotning milliy xususiyatlari, xususan, norasmiy bandlik darajasi, kichik biznes va xizmatlar sektoridagi rasmiylashtirilmagan faoliyat alohida o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning statistik metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot jarayonida ushbu yo‘nalishning mohiyati, qo‘llanilish sohalari hamda samaradorligi yuzasidan ilmiy maqolalar, rasmiy hisobotlar va statistik ma’lumotlar chuqur o‘rganildi. Tadqiqotda **empirik tahlil, ekonometrik tahlil, taqqoslash, tizimli tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya** usullaridan keng foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida yashirin iqtisodiyot hajmini baholashga oid mavjud yondashuvlar tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi.



1- Rasm yashirin iqtisodiyoti yaxshi yo’lga qo’yiladigan joylar.

Tahlil va Natijalar: 2025-yil yakuniy statistik baholashlariga ko‘ra, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyot ulushi hali ham sezilarli darajada saqlanib qolgan bo‘lib, YaIMning o‘rtacha 32,9 foizi ushbu sektor hissasiga to‘g‘ri kelganligi aniqlangan, bu esa iqtisodiy faoliyatning muhim qismi rasmiy hisob-kitoblardan tashqarida qolayotganini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichni chuqurroq tahlil qilish natijasida yashirin iqtisodiyot tarkibi ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linganligi, ya’ni norasmiy sektor va yashirin sektor mavjudligi ma’lum bo‘lib, ular mos ravishda 201,3 trillion so‘m va 64,3 trillion so‘mni tashkil etgan holda umumiy hisobda 265,5 trillion so‘mga teng hajmni shakllantirgan. Sektorlar kesimidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashirin iqtisodiyotning eng yuqori ulushi qishloq xo‘jaligi sohasida kuzatilib, u yerda norasmiy faoliyat darajasi 70–75 foizgacha yetgan, shu bilan birga qurilish sohasida bu ko‘rsatkich 35–36 foiz atrofida, xizmat ko‘rsatish sohasida esa 30–35 foiz oralig‘ida shakllangan bo‘lib, bu holat ayniqsa kichik biznes subyektlari va norasmiy bandlik yuqori bo‘lgan hududlarda yaqqol namoyon bo‘lgan. 2024-yil bilan solishtirilganda 2025-yilda yashirin iqtisodiyot ulushida nisbatan pasayish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lib, bu kamayish taxminan 1–2 foiz punktni tashkil etgan va ushbu ijobiy o‘zgarish elektron to‘lov tizimlarining keng joriy etilishi, soliq ma’murchiligining raqamlashtirilishi, onlayn nazorat mexanizmlarining kuchayishi hamda tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish jarayonlarining soddalashtirilishi bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning statistik metodologiyasini takomillashtirish afzalliklari: Milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning statistik metodologiyasini takomillashtirish **birinchi** navbatda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning aniqligini oshiradi, ya’ni yashirin va norasmiy faoliyatni hisobga olishdagi xatoliklar kamayadi hamda YaIM tarkibi real holatga yaqinlashadi. Bu esa iqtisodiy jarayonlarni to‘g‘ri baholash va ishonchli statistik ma’lumotlar shakllanishiga xizmat qiladi. **Ikkinchidan,** takomillashtirilgan metodologiya turli manbalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish orqali kompleks tahlil qilish imkonini beradi, natijada yashirin iqtisodiyotning hajmi va tuzilmasi aniqroq aniqlanadi. **Uchinchidan**, ushbu yondashuv sektorlar kesimida chuqur tahlil qilish imkonini kengaytiradi, ya’ni qaysi sohalarda norasmiy iqtisodiyot yuqori ekanligi aniqlanib, davlat tomonidan maqsadli choralar ishlab chiqish osonlashadi. **To‘rtinchidan,** metodologiyaning takomillashuvi statistika tizimini raqamlashtirishga olib keladi, bu esa ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash jarayonlarini tezlashtiradi hamda inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi. **Beshinchidan,** yashirin

iqtisodiyotni aniqroq baholash fiskal siyosat samaradorligini oshiradi, soliq tushumlarini prognoz qilishni yaxshilaydi va iqtisodiy rejalashtirishni ishonchliroq qiladi. Umuman olganda, statistik metodologiyani takomillashtirish yashirin iqtisodiyotning real hajmini aniqlash, iqtisodiy shaffoflikni oshirish va samarali iqtisodiy siyosat yuritish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning statistik metodologiyasini takomillashtirish kamchiliklari: Yashirin iqtisodiyot ulushini baholashda statistik metodologiyani takomillashtirish bir qator ijobiy natijalar bersa-da, uning aniq va to‘liq ishlashiga to‘sqinlik qiluvchi muhim kamchiliklar ham mavjud. Avvalo, yashirin iqtisodiyot bevosita kuzatilmaydigan faoliyat bo‘lgani uchun uni faqat bilvosita ko‘rsatkichlar orqali baholashga to‘g‘ri keladi, bu esa natijalarning aniq emas, balki taxminiy bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari, turli manbalardan olinadigan ma’lumotlar o‘rtasida farqlar bo‘lishi ularni birlashtirish jarayonini murakkablashtiradi va yakuniy hisob-kitoblarda tafovutlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu esa umumiy natijaning ishonchliligini kamaytiradi. Shuningdek, ayrim norasmiy iqtisodiy faoliyat turlari umuman ro‘yxatga olinmasligi yoki yashirin qolishi mumkin, natijada statistik model ularni to‘liq qamrab olmaydi va yashirin iqtisodiyot hajmi real holatdan kichik yoki ba’zan noto‘g‘ri baholanishi ehtimoli yuzaga keladi. Yana bir muhim kamchilik shundaki, takomillashtirilgan econometrik va statistik modellarning o‘zi murakkab bo‘lib, ularni amaliyotda qo‘llash uchun yuqori malaka, zamonaviy dasturiy ta’minot va katta resurslar talab etiladi. Bu esa ayrim tashkilotlarda metodologiyani to‘liq joriy qilishni cheklaydi. Bundan tashqari, modelda ishlatiladigan taxminlar va koeffitsiyentlar o‘zgarsa, yakuniy natijalar ham sezilarli darajada o‘zgarib ketishi mumkin, ya’ni hisob-kitoblar barqarorlik darajasi past bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Takliflar: Birinchidan, yashirin iqtisodiyot ulushini baholashda faqat an’anaviy statistik ma’lumotlarga tayanmasdan, bank tranzaksiyalari, elektron to‘lovlar, fiskal chek tizimi va mobil to‘lov platformalari kabi raqamli ma’lumot manbalarini keng integratsiya qilish zarur, chunki bu real iqtisodiy faoliyatni yanada aniqroq aks ettirish imkonini beradi. Ikkinchidan, davlat idoralari o‘rtasida ma’lumot almashinuvi tizimini yaxshilash va yagona integratsiyalashgan statistik platforma yaratish lozim, bu esa turli manbalardan kelayotgan ma’lumotlarning mosligini ta’minlab, hisob-kitoblarda xatoliklarni kamaytiradi. Uchinchidan, yashirin iqtisodiyotning turli sohalardagi xususiyatlarini hisobga olgan holda sektorlar bo‘yicha alohida statistik modellar ishlab chiqish maqsadga muvofiq, chunki qishloq xo‘jaligi, qurilish va xizmatlar sohalarida norasmiylik darajasi bir xil emas. To‘rtinchidan, statistik baholash jarayonida sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish kerak, bu yashirin iqtisodiyotdagi yashirin tendensiyalarni aniqlash va prognozlash sifatini oshiradi. Beshinchidan,

norasmiy iqtisodiy faoliyatni aniqlash uchun muntazam ravishda tanlanma kuzatuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy so‘rovlarni o‘tkazish zarur, bu esa statistik ma’lumotlarning to‘liqligini ta’minlaydi. Oltinchidan, xalqaro tajriba va standartlarni milliy statistik tizimga moslashtirish orqali hisob-kitoblarning aniqligi va xalqaro taqqoslanish darajasini oshirish lozim.

Xulosa. Men ushbu maqola ishimni yozganimdan kelib chiqqan xulosalarim milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning statistik metodologiyasini takomillashtirish zamonaviy biznesni rivojlantirishda inqilobiy vositalardan biri hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot ulushini baholashning statistik metodologiyasini takomillashtirish iqtisodiy jarayonlarni to‘liq va aniq aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashirin iqtisodiyot hali ham iqtisodiyot tarkibida sezilarli ulushga ega bo‘lib, uni aniq baholash murakkab jarayon hisoblanadi, chunki u ko‘pincha norasmiy va yashirin shaklda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, takomillashtirilgan metodologiyalar yordamida bilvosita ko‘rsatkichlar va raqamli ma’lumotlar integratsiyasi asosida yashirin iqtisodiyot hajmini nisbatan aniqroq baholash imkoniyati paydo bo‘lmoqda. Bu esa iqtisodiy shaffoflikni oshirish, soliq tizimini samarali boshqarish va iqtisodiy siyosatni to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni ham ko‘rsatadiki, zamonaviy statistik yondashuvlar — jumladan, elektron ma’lumotlar bazalari, big data va ekonometrik modellar — yashirin iqtisodiyotning tarkibi va dinamikasini chuqurroq tahlil qilish imkonini bermoqda. Biroq, ushbu jarayonda ma’lumotlarning to‘liq emasligi va norasmiy faoliyatning yashirinligi kabi muammolar hali ham mavjud bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, statistik metodologiyani takomillashtirish yashirin iqtisodiyot ulushini yanada aniqroq baholashga, iqtisodiy tizim shaffofligini oshirishga hamda davlat iqtisodiy siyosatini samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:

1. Schneider, F., & Enste, D. H. (2000). *Shadow Economies: Size, Causes, and Consequences*. Journal of Economic Perspectives.
2. Schneider, F. (2021). *The Shadow Economy: An International Survey*. Cambridge University Press.
3. Medina, L., & Schneider, F. (2018). *Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years?* IMF Working Paper.
4. Tanzi, V. (1982). *The Underground Economy in the United States and Abroad*. Lexington Books.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024–2025). *Milliy iqtisodiy ko‘rsatkichlar va statistik ma’lumotlar to‘plami*.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2025). *Iqtisodiy islohotlar va raqamlashtirish bo‘yicha hisobotlar*.

7. Aripova, G. I. (2026). *Raqamli soliq ma’murchiligi orqali yashirin iqtisodiyotni bartaraf etishda soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish*. TADQIQOTLAR jurnali.
8. Ergasheva, M. (2025). *Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish metodologiyasi*. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
9. Xasanov, J. (2024). *O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosati va islohotlar*. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali.
10. Jahon banki. (2023). *Uzbekistan Economic Update: Shadow Economy and Informality Report*.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
— Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —